MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHIYATINI OSHIRISH

Xayitov Rustam Burxonovich
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18080778

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda paxta-toqimachilik klasterlarini tashkil etish ahamiyati, paxta-toqimachilik klasterlari salohiyatini zarurligi, o‘ziga xos xususiyatlari va ushbu salohiyatni oshirish masalalari muhokama qilingan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается важность создания хлопчатобумажных кластеров для экономического развития региона, необходимость использования потенциала таких кластеров, их специфические особенности и вопросы повышения этого потенциала.*

Abstract. *This article discusses the importance of establishing cotton-textile clusters in the economic development of the region, the need for the potential of cotton-textile clusters, their specific features, and issues of increasing this potential.*

Kalit so‘zlar. *Mintaqa, barqaror rivojlantirish, klaster, paxta-toqimachilik klasterlari, salohiyat, paxta-toqimachilik klasterlari salohiyati.*

Ключевые слова. *Регион, устойчивое развитие, кластер, хлопково-текстильные кластеры, потенциал, потенциал хлопково-текстильных кластеров.*

Key words. *Region, sustainable development, cluster, cotton-textile clusters, potential, potential of cotton-textile clusters.*

Kirish. Mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishida paxta-to‘qimachilik klasterlari muhim strategik ahamiyatga egadir. Mazkur klasterlar qishloq xo‘jaligi bilan sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyani ta’minlab, hududlarda iqtisodiy faollikni tezlashtirmoqda. Paxta yetishtirish, uni qayta ishlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda eksport jarayonlarining yagona tizim sifatida bog‘lanishi natijasida yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Shu sababli, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida klaster tizimi keng joriy qilindi. Xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlari qishloq xo‘jaligini sanoatlashtirish orqali mamlakat va mintaqalarning izchil rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy drayverga aylanmoqda.

Shuningdek, keyingi besh yillikda paxta tolasini chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2,1 barobar, eksportni esa 2,6 barobar oshirish, gilam va uy-ro‘zg‘or to‘qimachiligi mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-2-son Farmoni [1] qabul qilingan. Mazkur hujjat klaster faoliyatining barcha bo‘g‘inlarini xomashyo yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona mexanizm sifatida birlashtirish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini yaratdi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakat va uning mintaqalarini barqaror rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, joriy yil boshidan paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishiga ilg‘or agrotexnologiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy boshqaruv usullari asosida tashkil etish, suv resurslaridan tejamkor va oqilona foydalanishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi texnikasini modernizatsiya qilish, shuningdek, paxtachilik jarayoniga xorijdan malakali agronomlar va mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan [2]. Ushbu faoliyatlar klaster tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy yechimlar ishlab chiqilishiga zamin yaratadi.

Yana bir tadqiqot yo‘nalishida O‘zbekiston hududlarida paxta-to‘qimachilik klasterlarining eksport imkoniyatlariga ta’sir etuvchi omillar baholanib, o‘rta muddatli istiqbol prognozlari shakllantiriladi. Bu maqsadda klasterlar orqali eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmining mintaqalar iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilinadi [3]. Bunday tahlillar klasterlarning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni, ularning ijtimoiy natijalari hamda ekologik jihatlari chuqur o‘rganilgan [4]. Mazkur tahliliy yondashuv klasterlarning barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Boshqa tadqiqotlarda esa paxta-to‘qimachilik klasterlari paxta sanoat klasteri sifatida ko‘rib chiqilib, sohada mavjud bo‘lgan muammolar tahlil qilinadi [5]. Bu yondashuv klaster tizimi tarkibidagi kamchiliklar va yechimlar bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga imkon beradi.

Yana bir tadqiqot yo‘nalishida paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari o‘rganilgan [6]. Bunday ilmiy izlanishlar klasterlarning mavjud imkoniyatlarini to‘liq ishga solish, yangi istiqbollarni belgilash va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo‘llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda paxta-toqimachilik klasterlari salohiyatini oshirish yuzasidan kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mintaqalarning barqaror rivojlanishida paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatini kuchaytirish eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu klasterlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ular minglab yangi ish o‘rinlarini yaratib, aholining bandligini ta’minlaydi va daromadlarini oshiradi. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarida infratuzilmani modernizatsiya qilish, mahalliy biznesni rivojlantirish va aholi faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, klasterlar faoliyatida ekologik barqarorlikka e’tibor kuchayib, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlar rivojlanmoqda.

Avvalo, paxta-to‘qimachilik klasterlarining imkoniyatlarini kengaytirish masalasi har bir mintaqada muntazam ravishda tahlil qilinib, takomillashtirish choralariga e’tibor qaratilmoqda. Shu asosda klasterlar salohiyatini oshirish bir nechta asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi belgilanadi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish yo‘nalishlari

№	Yo‘nalishlar	Salohiyatni oshirish bo‘yicha choralar va yo‘nalishlar
1	Ishlab chiqarishni kengaytirish	Yangi korxonalar ochish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish
2	Qishloq xo‘jaligi samaradorligi	Hosildor navlar, suv tejovchi texnologiyalar, agroxizmatlar tizimini joriy etish
3	Infratuzilmani rivojlantirish	Yo‘l, elektr, logistika va saqlash infratuzilmasini takomillashtirish
4	Ijtimoiy barqarorlik	Yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy aholining bandligini ta'minlash
5	Eksport salohiyati	Tayyor mahsulot eksportini kengaytirish, xalqaro sertifikatlarga moslash
6	Innovatsiya va kadrlar	Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini klasterga jalb qilish
7	Ekologik barqarorlik	Chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish

Shunday ekan, mintaqalar iqtisodiyotini samarali rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mexanizmlardan biridir. Bu tizim qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish va eksport yo‘nalishlarini yagona zanjirga birlashtirib, hududlarda kompleks iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Avval paxta xomashyo sifatida chetga yuborilgan bo‘lsa, klaster tizimi joriy etilgach, paxtani chuqur qayta ishlash, ip-yigiruv, gazlama tayyorlash, bo‘yash hamda tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish bosqichlari bir markazda jamlandi. Bu esa mahsulotga qo‘shilgan qiymatning sezilarli oshishiga, eksportbop tayyor mahsulotlar ulushining ko‘payishiga va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikning kuchayishiga imkon yaratdi.

Shuningdek, klasterlar mintaqalarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o‘ynaydi. Ular minglab aholini ish bilan ta’minlaydi, hududlarda barqaror daromad manbalarini yaratadi, xotin-qizlar va yoshlarning mehnat bozoridagi faolligini oshiradi. Qishloq xo‘jaligida klaster yondashuvi yuqori hosilli paxta navlarini joriy etish, suvni tejovchi agrotexnologiyalarni qo‘llash va resurslardan oqilona foydalanish orqali hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatini kuchaytirish qator strategik yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish. Klasterlar faoliyatini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi ip yigiruv, bo‘yash, tikuvchilik va to‘qimachilik korxonalarini tashkil etish talab qilinadi. Bu ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga, mahsulot raqobatbardoshligining oshishiga va eksport hajmining kengayishiga xizmat qiladi.

- qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish. Yuqori hosilli paxta navlarini ekish, ilg‘or agrotexnik amaliyotlarni joriy etish hamda suvni tejovchi texnologiyalarni qo‘llash orqali paxta yetishtirish jarayonining unumdorligi oshiriladi. Natijada, klasterlar uchun barqaror va sifatli xomashyo zaxirasi shakllanadi.

- hududlarda iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish. Klasterlarning to‘laqonli ishlashi uchun transport, logistika, energetika va aloqa tizimlarini takomillashtirish zarur. Bu ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi va hududiy tadbirkorlik faolligini oshiradi.

- yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish. Klaster tizimi minglab bevosita va bilvosita mehnat o‘rinlarini shakllantiradi. Bu ishsizlik darajasining kamayishiga hamda aholining real daromadlarining ortishiga olib keladi. Xususan, ayollar va yoshlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari kengayadi.

- eksport yo‘nalishini rivojlantirish. Xalqaro talablarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish orqali tashqi bozorlarga kirish imkoniyatlari kengayadi. Mahalliy brendlar ostida tayyor mahsulotni eksport qilish valyuta tushumlarini oshiradi va iqtisodiyotning tashqi savdo salohiyatini mustahkamlaydi.

- kadrlar tayyorlash va innovatsiyalarni tatbiq etish. Klasterlar samaradorligini oshirish uchun malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda kasb-hunar maktablari, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kuchaytirilishi va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish jarayoniga keng qo‘llanishi zarur.

- ekologik muvozanatni saqlash va barqarorlikni ta’minlash. Paxta yetishtirish va uni qayta ishlashda ekologik talablar asosida ishlash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish klasterlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, mintaqada paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatini oshirishning eng zamonaviy vositalaridan biri sifatida raqamlashtirish jarayonlarini keng joriy etishdir. Bu borada paxta-to‘qimachilik sohasi mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallagani bois, uning raqamli transformatsiyasi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytiradigan asosiy omil sifatida qaraladi. Raqamlashtirish xomashyo yetishtirish bosqichidan boshlab yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayonigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarda samaradorlikni oshirish, xarajatlarni qisqartirish va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha klaster faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi:

- agroiqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish: texnika va resurslardan foydalanishni raqamli monitoring orqali yaxshilash, ekin maydonlarini dronlar va GPS tizimlari yordamida nazorat qilish, o‘simlik holatini, suv ta’minotini aniq baholash va tezkor choralar ko‘rish.

- ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini raqamlashtirish: to‘qimachilik korxonalarida avtomatlashtirilgan faoliyatni yo‘lga qo‘yish, ERP tizimlari orqali zaxira va tayyor mahsulotlarni raqamli boshqarish, logistika jarayonlarini IoT va analitik dasturlar yordamida optimallashtirish.

- ma’lumotlarni integratsiyalash va tahlil qilish: klaster ichidagi barcha subyektlar o‘rtasida ma’lumot almashish platformalarini yaratish, ishlab chiqarish jarayoni va bozor dinamikasiga oid ma’lumotlarni tahlil qilib, tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, sun’iy intellekt va mashina o‘rganish asosida prognoz qilish;

Shu bilan birga, ushbu soha taraqqiyotida raqamlashtirish quyidagi muammolar mavjud bo‘ladi:

- raqamli savodxonlik va kasbiy ko‘nikmalarning yetishmasligi;

- zamonaviy dasturiy ta’minot va xalqaro standartlarga mos texnologiyalarni tanlashdagi muammolar.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar o‘rinli hisoblanadi:

- davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, raqamlashtirish loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

- soha uchun raqamli kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan kurslar, treninglar va o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

- IT-kompaniyalar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

- barcha klasterlar faoliyatini qamrab oluvchi yagona raqamli platformani yaratish.

Xulosa sifatida, paxta-to‘qimachilik klasterlari mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport hajmini kengaytirish, infratuzilmani yaxshilash va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ularning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish davlat siyosati, xususiy sektor tashabbuslari va ilm-fan integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu borada ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish, raqamlashtirishni jadallashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash klasterlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Uzoq muddatda esa ushbu tizim hududlararo iqtisodiy muvozanat va aholi farovonligini oshirishning muhim omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-январдаgi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги PF-2-son Farmoni. Manba: https://lex.uz/docs/-6351331
2. Юсупов Э.Дж., Кушаров З.К., Гайбуллаев О.Б. Вопросы конкурентоспособности и результаты кластеризации деятельности субъектов хлопкового сектора Узбекистана. // Евразийский Союз Ученых (ЕСУ), 5(74), 2020. - с. 18.
3. Джурабаев О.Дж. Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023-yil, iyul, №7. - c. 335.
4. Sherkulov Sh.E. The role and impact of cotton-textile clusters in economic development. // Ilg ‘or iqtisodiyot va pedagogic texnologiyalar ilmiy-elektron jurnal, I son, iyul-avgust, 2024. - 155 b.
5. Xalimbetov F.B. Paxtachilik klasteri - qishloq xo'jaligida yangi imkoniyat va samaradorlik omili. // Academic Research in Educational Sciences, Volume3, Issue12, 2022. - 298 b.
6. Jamolova F.E. Paxta-to’qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo’llari. // "Мировая наука", №4 (85), 2024. - 1-5 b.